



COMPREHENSIVE SUPPORT FOR YOUTH IN THE NEW UZBEKISTAN AS A PRIORITY AREA OF SOCIAL POLICY

Azim Kholmakhmatov

independent researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: great-king@inbox.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth policy, youth portal, Volunteer Youth Squads, United Nations Convention on Youth Rights, Youth Parliament, Youth Union, Law on Youth State Policy.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article dedicated to the analysis of the conditions created to the analysis of the conditions created in our country for the formation of harmoniously developed generation we consider the achievements of young people in different spheres and directions, as well as anal it analyzes the social relations of these achievements.

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI HAR TOMANLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH IJTIMOIY SIYOSATNING ENG USTVOR YO'NALISHI SIFATIDA

Azim Xolmaxmatov

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: great-king@inbox.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, yoshlari portali, Fidoyi yoshlar otryadlari Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi, Yoshlar parlamenti, Yoshlar ittifoqi, Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama yetuk avlod bo'lib voyaga etishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar xususida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, yoshlarimizning turli soha va yo'nalishlarda erishgan yutuqlari hamda ushbu yutuqlarning ijtimoiy –siyosiy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi.

ВСЕСТОРОННЯЯ ПОДДЕРЖКА МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ КАК ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ

Азим Холмахматов

независимый исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: great-king@inbox.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежная политика, молодежный портал, Добровольческие молодежные отряды, Конвенция ООН о правах молодежи, Молодежный парламент, Молодежный союз, Закон о государственной молодежной политике.

Аннотация: Данная статья посвящается анализу условий, созданных в нашей стране для формирования гармонично развитого поколения. Рассматриваются достижения молодёжи в различных сферах и направлениях, а также анализируются социально-политические и правовые основы этих достижений.

Kirish. (Introduction)

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha qirralarini tubdan yangilash va jahon taraqqiyoti tajribalari asosida boyitib borishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilib borilmoqda. Jumladan, yoshlar masalalariga oid siyosat davlatning bosh islohotchi sifatidagi faoliyatida alohida ahamiyat kasb etdi. Zero, har bir mamlakatning bugungi va ertangi taraqqiyoti o‘sib kelayotgan avlodning jismonan va ma’nan yetukligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Bugungi kunda O‘zbekistonda aholi umumiyligi soni 38 mlnga yaqinlashib qolgan bo‘lsa, shundan, 60 foizga yaqin qismini kuchli, shijoatga ega, g‘ayrati ichiga sig‘magan yosh fuqarolar tashkil etadi. Aynan mana shuning uchun, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarida namoyon bo‘ladi. Bugun O‘zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda ta’lim, sport kabi bir qator sohalarda yoshlarning o‘z imkoniyatlarni namoyish etishi uchun bosqichma-bosqich, tizimli ravishda sharoitlar yaratib berilmoqda.

Yoshlar yo‘nalishda davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilishi jahonda kechayotgan globallashuv, integrasiyalashuv, axborotlashuv va universallashuv jarayonlarining jadallahushi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy munosabatlar dinamikasiga uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur o‘zgarishlar umuminsoniy manfaatlarni ta’minlashning ijobjiy tajribalarini umumlashtirish asosida milliy manfaatlarni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish

hamda bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni har tomanlama qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy siyosatning eng ustvor yo‘nalishi sifatida tahlillarni amalga oshirgan olimlar qatoriga Q.Quranboev, S.Jo‘raev, S.Abdunazarov, N.Turg‘unova, D.Kattaxanova, F.Ravshanov, M.Yuldashev, kabi taniqli olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Shu ma’noda, O‘zbekistonning 2030 yilgacha amalga oshirilishi belgilangan strategiyasiga tayanib olib borilayotgan buniyodkorlik faoliyati jarayonida yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq mavzuni maxsus tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rganish, shu asosda amaliyot uchun zarur bo‘lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqish alohida e’tiborni talab qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot olib borish davomida ob’ektivlik, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funksional, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, hujjatlarni o‘rganish, ma’lumotni qayta ishslash guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq.

Alohibda ta’kidlash lozimki, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham bu masala alohibda o‘z aksini topgan[1]. Jumladan, mazkur hujjat bilan yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

birinchidan, yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish; ;

ikkinchidan, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish;

uchinchidan, yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish;

to‘rtinchidan, yoshlar o‘rtasida AyTi sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish;

beshinchidan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish.

Yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish,

xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indekslari hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-sod Farmoniga asosan O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining yoshlar hayoti, orzu-intilish va muvaffaqiyatlarini keng yoritish, muammo va kamchiliklari echimiga qaratilgan ko'rsatuv, maqola va eshittirishlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalari va nashriyotlardagi ulushlarini Agentlikka berish hamda Agentlik tomonidan ular negizida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Yoshlar media xoldingi"ni tashkil etish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlandi[2]. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etildi va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indekslari hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasi shakllantirildi.

Bundan tashqari, vazirlik vaidoralar hamda hokimliklar bilan birgalikda ishsiz yoshlar ro'yxatlari shakllantirilib ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan manzilli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, "Fidoyi yoshlar otryadlari"ni tuzish orqali ishsiz yoshlarni haq to'lanadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb etish; "Yoshlar qurilish otryadlari"ni tashkil etish va oliy ta'lim muassasalari talabalarini yozgi ta'til vaqtida haq to'lanadigan qurilish ishlariga jalb etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamlı texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etildi.

Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatilmoqda, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovasion ko'nikmalar shakllantirilmoqda, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatildi. Asosiy e'tbor, barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasি ishlab chiqilib, bosqichma bosqich amalga oshirishga qaratilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o‘zgardi. Majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatildi. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilindi.

BMTning fuqaroligi bo‘lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig‘iga javoban O‘zbekistonda yuz minglab fuqaroligi yo‘q shaxslarga fuqorolik berildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta’minlash, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g‘oyasi hamda qat’iy fuqarolik pozisiyasini shakllantirish borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro miqyosda muxtaram Prezidentimiz tomonidan muhokama qilinmoqda.

Jumladan, yurtboshimizning 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiya qabul qilish zarurligi borasida bildirgan tashabbusi, davlatlarning yoshlarning taqdiri va kelajagi borasida mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish borasidagi o‘ziga xos chaqiriq bo‘ldi.

Ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va esktremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shu ma’noda, BMT Bosh Assambleyaning yetmish beshinchı sessiyasi hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat er yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur sessiyasi koronavirus pandemiyasi tufayli tarixda birinchi marta butunlay yangi formatda –onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining ushbu sessiyasi shaklan va mazmunan avvalgi sessiyalardan farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega.

Jumladan, muhtaram Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida bildirilgan: “Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini

qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman”, - deya bildirgan taklifini mamlakatimiz yoshlarining ertangi kunga ishonchini yanada oshirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi[3].

Vaholanki, mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Aynan 2020 yilda yoshlarimiz uchun muhim tuzilmalar tashkil etilganligi mamlakatmizda amalga oshirilayotgan yoshлага oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishda o‘ziga xos burilishi yili bo‘ldi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkala palatasida alohida “Yoshlar parlament”lari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi PQ-4768-soni qaroriga asosan Yoshlar ishlari agentligi tuzilganligi [4] bu sohadagi jiddiy qadamlar qo‘yliganligining yaqqol namunasi bo‘ldi.

Bundan tashqari yurtimizdada yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan huquqiy hujjatlarni zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilayotganligi yoshlarga davlat darajasida tegishli shart-sharoit yaratilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, bugungi kunga qadar yoshlarga oid 40 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikasiya qilinganligi fikrimizning yana bir dalilidir.

Shuningdek, yoshlar tashabbusi bilan Yoshlar ittifoqi qoshida 26 ta nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish Respublika markazi, Imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishslash markazi, Yosh olimlar Respublika Kengashi, Yosh fermerlar Kengashi, Yoshlar turizmi agentligi, O‘zbekiston yoshlari umumjahon assosiasiyasi, ijodkor yoshlar Respublika Kengashi, Yoshlar media markazi, Yoshlar nashriyot uyi va boshqalar tashkil etildi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Yoshlar bilan ishslash agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Umuman olganda yurtboshimiz yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas’uliyatli vazifa ekanligini ta’kidlab: “**Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas**” [5].

Bu borada Prezidentimiz yoshlar dunyoqarashini shakillantirishda mafkura masalalalriga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Zotan, yoshlarni barkamol insonlar etib voyaga etkazish, yot mafkuralar, hurujlardan asrash, ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi ko'nikmalarni shakillantirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida "**Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, doimo ma'naviy oziq kerak.** Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan topa olmasa, bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlay boshlaydi"

[6], - deya ta'kidlaydi. Bu o'rinda davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar, yoshlarimiz hayotining barcha jabhalarini, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilayotgan islohatlar unib-o'sib kelayotgan yoshlarga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan doimiy e'tibor va g'amxo'rlik namunasidir. O'z navbatida davlatimiz rahbariyati tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar esa, ertangi kunimizni o'z qo'llarimiz bilan quramiz degan mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol yoshlarni shakllantirishga turtki bo'lmoqda. Albatta, ertangi kunimiz, porloq kelajagimiz ana shunday yoshlar qo'lida. Zero, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya kelajakka tikilgan sarmoyadir. Yangi davlatni barpo qilish oson bo'limgani singari, uning porloq kelajagini shakillantirish ham engil bo'lmaydi. Buning uchun kuch, g'ayrat, shijoatimizni ayamagan holda ilm va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalashimiz kerak.

Xulosa sifatida aytish joizki, bugun Yangi O'zbekiston yoshlari bilim zakovatlari, intilishlari, mehnat shijoatlari bilan butun dunyoni hayratga sola boshladilar. Buning zamirida davlatimiz rahnamoligida yoshlarga oila, ta'lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi. "Nimani eksang shuni o'rasan" deydi dono xalqimiz. Shunday ekan bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlar, ertangi kunimiz porloq kelajagi uchun qo'yilayotgan tamal toshidir. Yoshlar tarbiyasiga e'tibor, o'zimizning kelajagimizga bo'lgan e'tibor ekanligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz va bu yo'lda barchamiz birday xarakat qilmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-sون Farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6017 son farmoni.. <https://lex.uz/docs/4880189>.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT 75 assambleyasidagi nutqi. – Xalq so‘zi, 2020 yil, 24 sentyabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/4880129>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun <http://uza.uz/>.